



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№7(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 196 sahifa,
1-iyul, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning milliy qadriyatlarga oid tasavvurlarini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	10
<i>Davlatnazarova Ziyodabonu Muxtor qizi</i>	
Talabalarning xulqidagi devyatsiya darajasining yuqorilab ketishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar.....	16
<i>Ergashev Jo'rabek Xalilovich</i>	
Zo'rvonlikka uchragan bolalarni va ularning oilalarini zo'rvonlikdan himoya qilishning normativ-huquqiy va ijtimoiy-psixologik asoslari.....	19
<i>Ergasheva Gullolaxon Nosirjon qizi</i>	
Tinglab tushunish kompetensiyasining psixolingvistik va pedagogik asoslari.....	24
<i>Jonbo'tayeva Maxarramxon</i>	
O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasining kasbiy kompetentlik tizimidagi o'рни.....	27
<i>Kutliyeva Feruzaxon Yusupovna</i>	
Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvini ta'minlashga xizmat qiluvchi zamonaviy kompleksni rivojlantirish.....	31
<i>Yunusov Mirsaid Xudayarovich, Istamova Sevdo Ashirqul qizi</i>	
Elektr tizimlari dinamik barqarorligini STEAM va Spiral (Regressus, Progressus) metodlari asosida o'qitish.....	35
<i>Safarov Xoliyor Sayyid Safar o'g'li</i>	
O'quvchilarda badiiy-estetik did va dizaynerlik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi.....	39
<i>Norbutayeva Dilafuz Abdurasulovna</i>	
Talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....	43
<i>Rahimova Nazokatxon Kasimjonovna</i>	
Model for Improving Students' Professional Competencies Based on Motivational Learning Approach.....	49
<i>Alibekova Mahzuna</i>	
Bo'lajak tarix o'qituvchilarining tarixiy tafakkurini shakllantirishning tuzilmasi va pedagogik komponentlari... 54	54
<i>Djumaniyazov Farxod Ulugbekovich</i>	
Yengil atletika bilan shug'ullanuvchi 14-16 yoshli sportchi qizlarda mashg'ulotlar davomiyligi.....	59
<i>Oralova Bibixol Husniddin qizi, G'ulomova Maftuna Sayfulla qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda ingliz tilini o'yinlar orqali o'rgatish.....	64
<i>Ruzmetova D. A.</i>	
Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining axloqiy faoliyatini shakllantirishda pedagogik vositalarning imkoniyatlari.....	68
<i>Saydanova Dilafuz Sadirdinovna</i>	
Xorijiy tajribalar va zamonaviy yondashuvlar asosida tyutorlar kasbiy salohiyatini rivojlantirishda malaka oshirish tizimini takomillashtirish.....	75
<i>Ubaydullayev Zuxriddin Botirovich</i>	
Effective Classroom Activities for Developing Speaking Skills Among EFL Learners.....	79
<i>Akhmatova Munisa Orif qizi</i>	
Xalqaro va milliy baholash dasturlarini hisobga olgan holda boshlang'ich ta'lim mazmunini yangi ta'lim trendlari bilan boyitish.....	86
<i>Gulmira Abdullayeva, Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi</i>	
Ijtimoiy tarmoqlarning shaxs identifikatsiyasiga ta'sirining ijtimoiy-psixologik omillari.....	90
<i>Tojiboyeva Nodiraxon Tursunaliyevna</i>	
Analysis of the Methodology for Developing Students' Creative Thinking Competence Using Artificial Intelligence Tools Based on STEAM Educational Technologies.....	94
<i>Tursunaliyeva Nazokat Tokhir qizi</i>	



Oliy ta'lim muassasalarida e-Portfolio ma'lumotlarini markazlashmagan tarzda boshqarishning afzalliklari va muammolari	102
<i>Yusupova Dono Adambayevna, Jalolov Tursunbek Sadriddinovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining inklyuziv-tolerantlik haqidagi qarashlari tahlili	110
<i>Amangeldiyeva Adolat Ravshanbek qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni savod o'rgatishga tayyorlashning samarali shakl, metod va didaktik vositalari	115
<i>Go'zal Qurbonova</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishning dolzarb pedagogik masalalari.....	121
<i>Muratova Munavvar O'rol qizi</i>	
Tarkibida toponimlar mavjud maqol va matallarning lingvomadaniy xususiyatlari va ularni o'qitishning lingvodidaktik asoslari.....	126
<i>Usmonova Zamira Jaxongirovna</i>	
Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda tassavur fenomenologiyasi	130
<i>Axmedova Shaxlo Shoxob qizi</i>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi (haykaltaroshlik san'ati misolida).....	133
<i>Panayeva Maloxat Muminovna</i>	
Взаимосвязь склонности к сравнению внешности, интернет-зависимости и уровня притязаний у студентов-юношей	136
<i>Багдасарова Диана Левоновна</i>	
Роль каракалпакской народной национальной музыки в формировании духовно-нравственных качеств учащихся	141
<i>Зарымова Турсынай Бердибай кызы</i>	
A Review of the Literature on Stem Cells in Dentistry	145
<i>Ruziyeva Kamola Akhtamovna</i>	
Bolalar musiqa va san'at maktablarida estrada san'atini o'qitish masalalari (gitara cholg'usi misolida)	150
<i>Abdullayev O'tkir Sadullayevich</i>	
Talabalarda innovatsion kasbiy kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalari	154
<i>Avezov Davronbek Soburovich</i>	
O'zbek xalq pedagogikasi an'alarining zamonaviy ta'lim tizimidagi transformatsiyasi	158
<i>Erkaboyeva Nigora Shermatovna</i>	
Texnika va iqtisodiyot yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari talabalarida ingliz tilini mustaqil o'rganishning psixologik-pedagogik xususiyatlari	163
<i>Mamatqodirova Gulnigor Rustamjonovna</i>	
Yangi dunyoviy tartibotning shakllanishi jarayonida siyosiy taraqqiyot barqarorligi va xavfsizligini ta'minlash muammolari	168
<i>Nazarov Alisher Narimanovich</i>	
Ota-onasiz tarbiyalanayotgan o'smir o'g'il bolaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari.....	171
<i>Qodirov Jahongir Neymat o'g'li</i>	
Kutubxona muhitida talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishning innovatsion modellari.....	176
<i>Qosimova Xolida Nabiyevna</i>	
Jismoniy imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy harakatli o'yinlar orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish	179
<i>Raxmatullayeva Durdoni Fazliddin qizi</i>	
Personalized Approach to the Treatment of Generalized Periodontitis in the Prediction of Cardiovascular Complications Based on Salivary Proteomic Profiling.....	182
<i>Shodiev O. U., Nazarova N. Sh., Agababayan I. R.</i>	
O'smirlarda irratsional ustanovkalar shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari	187
<i>Toshboltayeva Nodira</i>	
Роль интерактивного лингвокультурологического пространства в формировании лингвокультурной компетенции студентов национальных групп филологических направлений.....	191
<i>Рустамова Ферузахон Махмуджановна</i>	

O'ZBEK XALQ PEDAGOGIKASI AN'ANALARINING ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDAGI TRANSFORMATSIYASI

Erkaboyeva Nigora Shermatovna

pedagogika fanlari doktori, professor Qo'qon davlat universiteti

ORCID: 0009-0005-8315-4850

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek xalq pedagogikasi an'alarining zamonaviy ta'lim tizimidagi transformatsiyasi, milliy pedagogik merosning bugungi ta'lim-tarbiya jarayonidagi ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati tadqiq etilgan. Xalq pedagogikasida shakllangan tarbiyaviy tajribalar, milliy qadriyatlar, urf-odatlar, xalq og'zaki ijodi hamda ustoz-shogird an'alarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda xalq pedagogikasi vositalarini kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, innovatsion metodlar hamda raqamli ta'lim muhiti bilan integratsiya qilishning pedagogik mexanizmlari asoslab berilgan. Milliy tarbiya an'alarining zamonaviy transformatsiyasi orqali ta'lim oluvchilarda ma'naviy-axloqiy fazilatlar, milliy o'zlikni anglash, ijtimoiy mas'uliyat va madaniy kompetensiyalarni rivojlantirish imkoniyatlari ochib berilgan. Tajriba-sinov natijalari xalq pedagogikasi an'alarini zamonaviy ta'lim jarayoniga tizimli tatbiq etish ta'lim oluvchilarning qadriyatlarga asoslangan dunyoqarashi, mustaqil fikrlashi va ijtimoiy faolligini rivojlantirishda samarali ekanligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: xalq pedagogikasi, etnopedagogika, milliy qadriyatlar, transformatsiya, zamonaviy ta'lim, tarbiya texnologiyalari, ma'naviy-axloqiy tarbiya, kompetensiyaviy yondashuv, ustoz-shogird an'anasi.

Abstract: This article examines the transformation of Uzbek folk pedagogy traditions in the modern education system, as well as the scientific-theoretical and practical significance of the national pedagogical heritage in contemporary educational and upbringing processes. The possibilities of integrating educational experience, national values, customs and traditions, oral folk creativity, and mentoring traditions formed within folk pedagogy with modern pedagogical technologies are analyzed. The study substantiates the pedagogical mechanisms for integrating folk pedagogy tools with a competency-based approach, learner-centered education, innovative methods, and the digital educational environment. The possibilities of developing learners' moral qualities, national identity, social responsibility, and cultural competencies through the modern transformation of national educational traditions are revealed. The results of the experimental study demonstrated that the systematic integration of folk pedagogy traditions into the modern educational process effectively contributes to the development of learners' value-based worldview, independent thinking, and social activity.

Key words: folk pedagogy, ethnopedagogy, national values, transformation, modern education, educational technologies, moral education, competency-based approach, mentoring traditions.

Аннотация: В данной статье исследуется трансформация традиций узбекской народной педагогики в современной системе образования, а также научно-теоретическое и практическое значение национального педагогического наследия в современном образовательном и воспитательном процессе. Проанализированы возможности интеграции воспитательного опыта, национальных ценностей, традиций и обычаев, устного народного творчества, а также традиций наставничества, сформированных в народной педагогике, с современными педагогическими технологиями. В исследовании обоснованы педагогические механизмы интеграции средств народной педагогики с компетентностным подходом, личностно ориентированным обучением, инновационными методами и цифровой образовательной средой. Раскрыты возможности развития у обучающихся духовно-нравственных качеств, национального самосознания, социальной ответственности и культурных компетенций посредством современной трансформации национальных воспитательных традиций. Результаты опытно-экспериментальной работы показали, что системное внедрение традиций народной педагогики в современный образовательный процесс эффективно способствует развитию у обучающихся ценностно ориентированного мировоззрения, самостоятельного мышления и социальной активности.

Ключевые слова: народная педагогика, этнопедагогика, национальные ценности, трансформация, современное образование, воспитательные технологии, духовно-нравственное воспитание, компетентностный подход, традиции наставничества.



KIRISH

Globalashuv jarayonlari jadallashayotgan bugungi davrda ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri milliy qadriyatlar, tarixiy-madaniy meros va zamonaviy pedagogik yondashuvlar uyg'unligini ta'minlash orqali har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iboratdir. Chunki har bir xalqning asrlar davomida shakllangan pedagogik tajribasi uning ma'naviy taraqqiyoti, axloqiy qarashlari va yosh avlod tarbiyasiga oid qarashlarini o'zida mujassamlashtiradi. Shu jihatdan o'zbek xalq pedagogikasi an'analari zamonaviy ta'lim tizimini takomillashtirish, tarbiyaviy jarayon samaradorligini oshirish hamda milliy identiklikni rivojlantirishning muhim ilmiy-pedagogik manbalaridan biri hisoblanadi. Jahon pedagogika fanida xalq pedagogikasi, etnopedagogika va milliy tarbiya konsepsiyalarini zamonaviy ta'lim jarayoniga integratsiya qilish masalalari dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Rivojlangan mamlakatlarning ta'lim tajribasi shuni ko'rsatadiki, milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligiga asoslangan pedagogik yondashuvlar o'quvchilarda ijtimoiy mas'uliyat, axloqiy ong, ijodkorlik va fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli xalq pedagogikasi elementlarini zamonaviy kompetensiyaviy ta'lim talablari asosida qayta talqin qilish va amaliyotga joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbek xalq pedagogikasi uzoq tarixiy taraqqiyot davomida shakllangan bo'lib, unda oila tarbiyasi, ustoz-shogird an'analari, xalq og'zaki ijodi, maqol va hikmatlar, urf-odatlar hamda milliy qadriyatlar orqali yosh avlodni axloqiy, aqliy, mehnatsevarlik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash g'oyalari mujassamdir. Mazkur pedagogik tajriba bugungi zamonaviy ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv va tarbiyaviy texnologiyalar bilan uyg'un holda yangi mazmun kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari ham milliy tarbiya tizimini rivojlantirish, yosh avlod ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish hamda xalq pedagogikasi imkoniyatlaridan samarali foydalanishni nazarda tutadi ^[1]. Zamonaviy ta'lim jarayonida xalq pedagogikasi an'analarni transformatsiya qilish nafaqat tarixiy merosni saqlash, balki uni innovatsion pedagogik metodlar, raqamli ta'lim vositalari va zamonaviy tarbiya texnologiyalari bilan uyg'unlashtirishni talab etmoqda.

Xalq pedagogikasi muammolari ko'plab olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Jumladan, G.N. Volkov tomonidan etnopedagogikaning nazariy asoslari ishlab chiqilgan bo'lsa, o'zbek pedagog olimlari M. Ochilov, O. Musurmonova, S. Nishonova, U. Mahkamov, N. Egamberdiyeva kabi tadqiqotchilar milliy tarbiya, ma'naviy-axloqiy rivojlanish hamda xalq pedagogikasi vositalarining ta'lim jarayonidagi o'rnini ilmiy jihatdan asoslab berganlar. Biroq zamonaviy globalashuv, raqamli ta'lim muhiti va kompetensiyaviy yondashuv sharoitida o'zbek xalq pedagogikasi an'analarni transformatsiya qilish, ularni yangi pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish hamda zamonaviy ta'lim jarayonida qo'llash mexanizmlarini takomillashtirish masalasi alohida ilmiy tadqiqotni talab etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, o'zbek xalq pedagogikasi an'analarning zamonaviy ta'lim tizimidagi transformatsiyasini tadqiq etish, milliy pedagogik merosning innovatsion imkoniyatlarini aniqlash hamda uni bugungi ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali integratsiya qilish pedagogika fanining dolzarb ilmiy-amaliy vazifalaridan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbek xalq pedagogikasi an'analarning shakllanishi, rivojlanishi va zamonaviy ta'lim tizimidagi transformatsiyasini o'rganish pedagogika fanida tarixiy, madaniy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda xalq pedagogikasi jamiyat tomonidan asrlar davomida yaratilgan tarbiyaviy tajriba, axloqiy qadriyatlar, milliy urf-odatlar va yosh avlodni ijtimoiy hayotga tayyorlashga qaratilgan pedagogik qarashlar majmui sifatida izohlanadi.

Xalq pedagogikasi va etnopedagogikaning ilmiy-nazariy asoslarini shakllantirishda G.N. Volkovning tadqiqotlari muhim o'rin tutadi. Olim etnopedagogikani xalqning tarixiy tajribasi asosida shakllangan tarbiya tizimini o'rganuvchi fan sifatida talqin etib, milliy madaniyat, xalq ijodi, urf-odat va an'analari yosh avlodning axloqiy shakllanishida asosiy omillardan biri ekanligini ta'kidlagan ^[2]. Uning qarashlarida xalq pedagogikasi shaxs tarbiyasining tabiiy ijtimoiy-madaniy muhiti sifatida baholanadi ^[3].

Sharq pedagogik tafakkuri tarixida Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib va Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarning ilmiy merosi xalq pedagogikasi g'oyalarining nazariy asoslarini boyitgan. Jumladan, Forobiy inson kamolotida ta'lim va tarbiyaning uyg'unligini asoslagan bo'lsa, Ibn Sino bolaning aqliy, axloqiy va jismoniy rivojlanishida tarbiya muhitining ahamiyatiga alohida e'tibor qaratgan. Alisher Navoiy asarlarida esa komil insonni shakllantirish, odob-axloq, mehnatsevarlik va insonparvarlik g'oyalari yetakchi o'rin egallaydi.

O'zbek pedagogika fanida xalq pedagogikasi an'analarni tadqiq etishda M. Ochilov, O. Musurmonova, S. Nishonova, U. Mahkamov, N. Egamberdiyeva, M. Quronov kabi olimlarning ilmiy ishlari alohida ahamiyatga ega. Ularning tadqiqotlarida milliy tarbiya mazmuni, xalq qadriyatlari asosida shaxsni shakllantirish, ma'naviy-axloqiy tarbiya va milliy o'zlikni anglash jarayonlari ilmiy asoslangan ^[6].

M. Ochilov o'z tadqiqotlarida xalq pedagogikasini milliy tarbiyaning muhim manbai sifatida baholab, xalq og'zaki ijodi, maqollar, ertaklar va an'anaviy tarbiya usullarining pedagogik imkoniyatlarini yoritgan ^[5]. Olimning fikricha, xalq tajribasiga asoslangan tarbiya vositalari yosh avlodda ijtimoiy xulq-atvor, axloqiy fazilat va hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

O. Musurmonova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda milliy qadriyatlar asosida yoshlarning ma'naviy madaniyatini rivojlantirish masalalari keng o'rganilgan. Olimaning qarashlariga ko'ra, xalq pedagogikasining zamonaviy ta'lim jarayoniga integratsiyasi o'quvchilarda milliy ong, ma'naviy barqarorlik va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish imkonini beradi ^[6].

S. Nishonova ilmiy izlanishlarida barkamol shaxs tarbiyasining pedagogik asoslarini tahlil qilib, Sharq mutafakkirlari merosi va xalq pedagogikasi g'oyalarining zamonaviy tarbiya tizimidagi ahamiyatini asoslab bergan ^[7]. Uning tadqiqotlarida tarixiy-pedagogik merosni yangi ta'lim sharoitlariga moslashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. M. Quronov tadqiqotlarida milliy tarbiya konsepsiyasi, yoshlarning ijtimoiy-ma'naviy rivojlanishi va tarbiya jarayonining zamonaviy mexanizmlari o'rganilgan.

Olim milliy qadriyatlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligini ko'rsatadi ^[8]. Zamonaviy tadqiqotlarda xalq pedagogikasining transformatsiyasi faqat an'analarni saqlash jarayoni sifatida emas, balki ularni innovatsion ta'lim muhiti, kompetensiyaviy yondashuv va raqamli pedagogika talablari asosida qayta mazmunlashtirish jarayoni sifatida talqin qilinmoqda. Xalq pedagogikasi vositalari zamonaviy shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, tarbiyaviy texnologiyalar va ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish bilan uyg'unlashmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mavjud ilmiy tadqiqotlarda xalq pedagogikasining nazariy asoslari, tarixiy taraqqiyoti va tarbiyaviy imkoniyatlari keng o'rganilgan bo'lsa-da, o'zbek xalq pedagogikasi an'analarning zamonaviy ta'lim tizimidagi transformatsiyasi, ularni innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan integratsiyalash mexanizmlarini ishlab chiqish masalasi yanada chuqur tadqiq etishni talab qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda o'zbek xalq pedagogikasi an'analarning tarixiy shakllanish jarayoni, ularning tarbiyaviy imkoniyatlari hamda zamonaviy ta'lim tizimidagi transformatsiya mexanizmlarini ilmiy asoslashga qaratilgan kompleks metodologik yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini tarixiy-pedagogik yondashuv, madaniy-antropologik yondashuv, aksiologik (qadriyatlarga yo'naltirilgan) yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv hamda tizimli tahlil tamoyillari tashkil etdi. Mazkur yondashuvlar xalq pedagogikasi an'analarni nafaqat tarixiy meros sifatida o'rganish, balki ularni zamonaviy pedagogik jarayon talablariga mos holda qayta talqin qilish imkonini berdi.

Tarixiy-pedagogik yondashuv asosida o'zbek xalqining asrlar davomida shakllangan tarbiya tajribasi, xalq og'zaki ijodi namunalari, urf-odatlar, marosimlar hamda ustoz-shogird an'analarning ta'limiy-tarbiyaviy mazmuni tahlil qilindi. Bu yondashuv orqali xalq pedagogikasi elementlarining shakllanish bosqichlari va ularning bugungi ta'lim jarayonidagi ahamiyati aniqlandi.

Aksiologik yondashuv asosida xalq pedagogikasida mujassam bo'lgan insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, kattalarga hurmat, ijtimoiy mas'uliyat, odob-axloq kabi qadriyatlarining zamonaviy ta'lim mazmuniga integratsiyalash imkoniyatlari o'rganildi. Ushbu yondashuv milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligida shaxsni tarbiyalash mexanizmlarini aniqlashga xizmat qildi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy-pedagogik manbalarni nazariy tahlil qilish, tarixiy-qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tizimlashtirish, pedagogik kuzatuv, suhbat, anketa-so'rov hamda kontent-tahlil metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar xalq pedagogikasi an'analarning mazmuniy xususiyatlarini aniqlash va ularning zamonaviy ta'lim sharoitidagi transformatsiyasini baholash imkonini berdi.

O'zbek xalq pedagogikasi vositalarining zamonaviy ta'lim tizimidagi samaradorligini aniqlashda quyidagi tarkibiy mezonlar asos qilib olindi:

- qadriyatli-motivatsion mezon – o'quvchilarda milliy qadriyatlarga hurmat, xalq pedagogikasi an'analarga qiziqish va ma'naviy ehtiyojlarning shakllanish darajasini;
- kognitiv mezon – milliy pedagogik meros, xalq og'zaki ijodi, urf-odatlar va tarbiyaviy an'analarning haqidagi bilimlarning rivojlanganligini;
- faoliyatli mezon – xalq pedagogikasi g'oyalarini kundalik faoliyatda qo'llash hamda ijtimoiy munosabatlarda namoyon etish ko'nikmalarini;
- refleksiv mezon – shaxsning o'z xatti-harakatlarini milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida baholash qobiliyatini aniqlashga xizmat qildi.



Tadqiqot davomida xalq pedagogikasi an'alarini zamonaviy ta'lim tizimiga integratsiya qilishda interfaol ta'lim metodlari, tarbiyaviy loyihalar, ijodiy topshiriqlar, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, raqamli ta'lim resurslari hamda milliy qadriyatlarni aks ettiruvchi pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari o'rganildi. Tadqiqot metodologiyasining asosiy g'oyasi shundan iboratki, o'zbek xalq pedagogikasi an'alarining zamonaviy ta'lim tizimidagi transformatsiyasi tarixiy merosni oddiy takrorlash emas, balki uni zamonaviy pedagogik talablar asosida rivojlantirish, innovatsion ta'lim jarayoni bilan uyg'unlashtirish va yangi avlod tarbiyasiga samarali tatbiq etish jarayonidir.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbek xalq pedagogikasi an'alarining zamonaviy ta'lim tizimidagi transformatsiyasini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari milliy pedagogik merosni zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan uyg'unlashtirish ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligini ko'rsatdi. Tajriba-sinov jarayonida xalq pedagogikasi vositalari asosida tashkil etilgan ta'lim-tarbiyaviy faoliyatning o'quvchilarda milliy qadriyatlarni anglash, ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishga ta'siri o'rganildi.

Tadqiqotda jami 120 nafar ta'lim oluvchi ishtirok etdi:

- tajriba guruhi (TG) – 60 nafar;
- nazorat guruhi (NG) – 60 nafar.

Tajriba guruhida o'zbek xalq pedagogikasi elementlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirishga asoslangan metodika qo'llanildi. Unda:

- xalq og'zaki ijodi namunalardan foydalanish;
- milliy qadriyatlarga asoslangan ijodiy topshiriqlar;
- tarbiyaviy loyiha ishlari;
- muammoli vaziyatlarni tahlil qilish;
- interfaol metodlar asosida milliy an'alarini o'rganish kabi faoliyat turlari tashkil etildi.

1-jadval: Tajriba boshida xalq pedagogikasi qadriyatlarining shakllanganlik darajasi

Guruhlar	Ishtirokchilar soni	Yuqori daraja	O'rta daraja	Past daraja
Tajriba guruhi	60	13 nafar (21,7%)	29 nafar (48,3%)	18 nafar (30%)
Nazorat guruhi	60	12 nafar (20%)	30 nafar (50%)	18 nafar (30%)

Dastlabki diagnostika natijalari ikki guruhda xalq pedagogikasi qadriyatlarini anglash va amaliy faoliyatda qo'llash darajasi deyarli bir xil ekanligini ko'rsatdi.

2-jadval: Tajriba yakunida xalq pedagogikasi asosida shakllangan kompetensiyalar rivojlanish darajasi

Guruhlar	Ishtirokchilar soni	Yuqori daraja	O'rta daraja	Past daraja
Tajriba guruhi	60	35 nafar (58,3%)	21 nafar (35%)	4 nafar (6,7%)
Nazorat guruhi	60	19 nafar (31,7%)	31 nafar (51,6%)	10 nafar (16,7%)

Tajriba yakunida olingan natijalar xalq pedagogikasi an'alarini zamonaviy ta'lim jarayoniga integratsiya qilishga asoslangan metodikaning samaradorligini ko'rsatdi. Tajriba guruhida yuqori darajadagi ko'rsatkich 21,7 foizdan 58,3 foizga oshdi, past darajadagi ko'rsatkich esa 30 foizdan 6,7 foizgacha kamaydi. Rivojlanish dinamikasi (% hisobida): Yuqori daraja,

Tajriba boshida:

- TG – 21,7 %
- NG – 20 %

Tajriba yakunida:

- TG – 58,3 %
- NG – 31,7 %

Natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, xalq pedagogikasi an'alarini zamonaviy ta'lim tizimiga transformatsiya qilish orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarga hurmat, ijtimoiy mas'uliyat, axloqiy ong va shaxsiy rivojlanishga bo'lgan motivatsiya sezilarli darajada oshadi. Shuningdek, xalq pedagogikasi vositalarini interfaol metodlar,

raqamli ta'lim resurslari va kompetensiyaviy yondashuv bilan uyg'unlashtirish ta'lim oluvchilarning milliy va umuminsoniy qadriyatlarini amaliy faoliyatda qo'llash imkoniyatlarini kengaytiradi. Olib borilgan tadqiqot natijalari o'zbek xalq pedagogikasi an'analari zamonaviy ta'lim tizimiga transformatsiya qilish milliy tarbiya samaradorligini oshirish hamda ta'lim oluvchilarning ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim pedagogik omil ekanligini ko'rsatdi. Bugungi globallashuv sharoitida xalq pedagogikasining tarixiy tajribalaridan foydalanish faqat an'analarni saqlash emas, balki ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish jarayoni sifatida qaralishi zarur. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, xalq pedagogikasi tarkibida mujassam bo'lgan oilaviy tarbiya, ustoz-shogird an'analari, xalq og'zaki ijodi, milliy urf-odatlar va qadriyatlar shaxsning axloqiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi kuchli tarbiyaviy vositalardir. Ushbu manbalarni zamonaviy ta'lim jarayoniga integratsiya qilish orqali o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash, ijtimoiy mas'uliyat, insonparvarlik va madaniy kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyati kengayadi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, an'anaviy xalq pedagogikasi vositalarini zamonaviy kompetensiyaviy ta'lim yondashuvlari bilan uyg'unlashtirish samarali natija beradi. Xususan, xalq og'zaki ijodi namunalari interfaol metodlar orqali o'rganish, milliy qadriyatlarga asoslangan loyihaviy topshiriqlarni bajarish, hayotiy vaziyatlarni pedagogik tahlil qilish ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlashi va ijtimoiy faolligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tajriba-sinov natijalari ham ushbu yondashuv samaradorligini tasdiqladi. Xalq pedagogikasi elementlari asosida ishlab chiqilgan pedagogik metodika qo'llangan tajriba guruhida yuqori rivojlanish darajasiga ega o'quvchilar ko'rsatkichi 21,7 foizdan 58,3 foizga oshdi. Bu esa milliy pedagogik merosni zamonaviy ta'lim jarayoniga tizimli integratsiya qilish ijobiy natija berishini ko'rsatadi. Shuningdek, xalq pedagogikasining transformatsiyasi jarayonida raqamli ta'lim vositalari, zamonaviy kommunikatsion texnologiyalar va innovatsion pedagogik metodlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Chunki bugungi yosh avlodga milliy qadriyatlarini yetkazishda faqat an'anaviy shakllar emas, balki zamonaviy ta'lim muhitiga moslashtirilgan yangi pedagogik mexanizmlar talab etiladi. Shu sababli o'zbek xalq pedagogikasi an'analari zamonaviy ta'lim tizimiga transformatsiya qilish tarixiy meros va innovatsion ta'lim imkoniyatlarini uyg'unlashtirish orqali amalga oshirilishi lozim.

XULOSA

O'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida shuni ta'kidlash mumkinki, o'zbek xalq pedagogikasi an'analari zamonaviy ta'lim tizimini boyituvchi, yosh avlodni ma'naviy-axloqiy jihatdan rivojlantiruvchi va milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya jarayonini takomillashtiruvchi muhim pedagogik manba hisoblanadi. Tadqiqot davomida xalq pedagogikasi an'alarining zamonaviy ta'lim tizimidagi transformatsiyasi quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq ekanligi aniqlandi:

- xalq pedagogikasi vositalarini kompetensiyaviy yondashuv asosida zamonaviy ta'lim mazmuniga integratsiya qilish;
- milliy qadriyatlar, xalq og'zaki ijodi va tarixiy tarbiya tajribalaridan foydalanish orqali ta'lim oluvchilarda ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirish;
- ustoz-shogird an'analari zamonaviy mentorlik va individual rivojlanish texnologiyalari bilan uyg'unlashtirish;
- xalq pedagogikasi elementlarini interfaol metodlar, loyiha faoliyati va raqamli ta'lim vositalari asosida takomillashtirish.

Tajriba natijalari xalq pedagogikasi an'alariga asoslangan pedagogik texnologiyalar ta'lim oluvchilarning milliy qadriyatlarga munosabati, ijtimoiy faolligi va tarbiyaviy kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali ekanligini tasdiqladi. Xulosa qilib aytganda, o'zbek xalq pedagogikasi an'alarining zamonaviy ta'lim tizimidagi transformatsiyasi milliy pedagogik merosni saqlash bilan bir qatorda uni yangi avlod ehtiyojlariga moslashtirish, innovatsion ta'lim jarayonlariga tatbiq etish va barkamol shaxsni shakllantirishning muhim ilmiy-pedagogik mexanizmi sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
2. Волков Г.Н. Этнопедагогика. – Москва: Академия, 1999. – 176 с.
3. Волков Г.Н. Педагогика народной жизни. – Чебоксары: Чувашское книжное издательство, 2004. – 336 с.
4. Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 160 б.
5. Ochilov M. Muallim – qalb me'mori. – Toshkent: O'qituvchi, 2001. – 432 b.
6. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2018. – 192 b.
7. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. – Toshkent: Istiqloq, 2019. – 220 b.
8. Qur'onov M. Milliy tarbiya asoslari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2021. – 240 b.
9. Egamberdiyeva N.M. Ijtimoiy pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 280 b.
10. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Sano-standart, 2022. – 416 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.